

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**“TASDIQLAYMAN”**

**NamDPI o'quv ishlari**

**bo'yicha prorektor**

**A.Abdunazarov**

“ ” \_\_\_\_\_ 2026-yil

**60111000-Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari (kunduzgi)  
bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat  
Attestatsiya sinovi**

**DASTURI**

*2025-2026 o'quv yili*

Ushbu dasturda 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo‘nalishi uchun “Umumiy yer bilimi”, “Geologiya. Tuproqlar geografiyasi” “Tabiiy geografiya”, “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya”, “Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish” maxsus fanlar bo‘yicha Davlat attestatsiyasini o‘tkazish tartibi, baholash mezonlari, savollari va o‘quv adabiyotlari hamda elektron ta’lim resurslari ro‘yxati keltirilgan.

**Tuzuvchilar:**

Abdullayev	NamDPI Tabiiy fanlar kafedrasini mudiri, PhD
M. Mo‘minov	NamDPI Tabiiy fanlar kafedrasini dotsenti, pfn
S. Abdurahmonov	NamDPI Tabiiy fanlar kafedrasini dotsenti, PhD
B. Kamalov	NamDPI Tabiiy fanlar kafedrasini dotsenti, PhD
M. Qoriyev	NamDPI Tabiiy fanlar kafedrasini dotsenti, PhD
I. Rahimov	NamDPI Tabiiy fanlar kafedrasini o‘qituvchisi
A. Halimjonov	NamDPI Tabiiy fanlar kafedrasini o‘qituvchisi

**Taqrizchilar:**

N. Alimdjanov Namangan davlat universiteti, gografiya va ekologiya asoslari kafedrasini mudiri, PhD

Q. Mirahmedov Namangan viloyati ekologiya va iqlim o‘zgarishi bosh boshqarmasining o‘rinbosari

60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi Tabiiy fanlar kafedrasini kafedrasining 2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi № \_\_\_\_\_-sonli majlisida muhokama qilingan hamda tasdiqqa tavsiya etilgan.

60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi Namangan davlat pedagogika instituti Kengashining 2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi № \_\_\_\_\_-sonli majlisida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

## I. UMUMIY QOIDALAR

1. 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi (keyingi o'rinlarda – **Dastur**) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 13-dekabrda 836-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom, 2023 yil 7-avgustdagi 344-sonli buyruq bilan tasdiqlangan 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari" (keyingi o'rinlarda – **Malaka talablar**) hamda 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining (keyingi o'rinlarda – **O'quv rejasi**) majburiy fanlarining o'quv dasturlari asosida tuzildi.

2. Fanlararo yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi (keyingi o'rinlarda – **Attestatsiya sinovi**) O'zbekiston Respublikasining oliy ta'limga oid qonun hujjatlarida belgilangan tartibga ko'ra, bitiruvchilarning Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlaridan biri hisoblanib, unda ta'lim yo'nalishi xususiyati, iqtidori va xohishiga ko'ra bitiruv malakaviy ishi yozish istagini bildirmagan, o'quv rejasidagi ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgan bitiruvchi kurs talabalari ishtirok etishlari shart.

3. Attestatsiya sinovini topshirishga o'quv reja va fan dasturlarini to'liq tugatgan va o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalarga ruxsat beriladi.

4. Attestatsiya sinovi O'quv rejasidagi majburiy fanlarning barchasini qamrab oladi hamda sinov topshiriqlari ushbu fanlar o'quv dasturlari asosida tuziladi.

5. Attestatsiya sinovi fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining Malaka talablarida bitiruvchiga qo'yiladigan umumiy talablarga javob bera olish darajasini aniqlashga yo'naltiriladi.

## II. ATTESTATSIYA SINOVI SHAKLI VA MUDDATI

6. 2025-2026 o'quv yilida 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining Attestatsiya sinovi – axborot texnologiyalarini tatbiq etgan holda test shaklida o'tkaziladi.

7. Dastur institut Kengashi tomonidan tasdiqlangan sanadan boshlab, o'quv yili yakuniga qadar Attestatsiya sinovi shaklini o'zgartirish mumkin emas.

8. Attestatsiya sinovi institut o'quv jarayoni grafigiga asosan, o'quv ishlari prorektori tomonidan tasdiqlangan muddatlarda o'tkaziladi va kamida olti oy oldin talabalarga yetkaziladi.

### **III. ATTESTATSIYA SINOVI SAVOLNOMASI**

9. Attestatsiya sinovi savolnomasi ta'lim yo'nalishi Malaka talablarining

- bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga;
- kasbiy faoliyatga;
- majburiy fanlariga qo'yilgan talablarni qamrab oladi.

10. Attestatsiya sinovi savolnomasi ta'lim yo'nalishi O'quv rejasida keltirilgan quyidagi maxsus fanlar dasturlari asosida shakllantirildi:

Ushbu dastur "Umumiy yer bilimi", "Geologiya. Tuproqlar geografiyasi" "Tabiiy geografiya", "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya", "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish" fanlarini o'qitishga mo'ljallangan.

Ushbu fanlar majmui:

#### **"UMUMIY YER BILIMI" FANIDAN SAVOLLAR**

1. Quyoshda energiya qanday hosil bo'ladi?
2. Geografik qobiqda moddalar necha holatda uchraydi?
3. Biosfera nima?
4. Yerning nechta qobig'i bor?
5. Antropogen landshaft nima?
6. Umumiy yer bilimi nimani o'rganadi?
7. Suv necha holatda uchraydi?
8. Yerning shakli qanday?
9. Yer bilan Quyosh o'rtasidagi o'rtacha masofa qancha?
10. Yerdan Quyoshgacha eng uzoq masofa (afeliy) qancha?
11. Yerdan Quyoshgacha eng yaqin masofa (perigeliy) qancha?
12. Yerning ichki qismi nechta qatlamdan iborat?
13. Quyoshdan Yerga yorug'lik necha minutda yetib keladi?
14. Okean osti yer po'sti nechta qatlamdan iborat?
15. Yer qaysi tomonga aylanadi?
16. Yer o'z o'qi atrofida qancha vaqtda bir marta aylanib chiqadi?
17. Kun va tun tengligi qachon kuzatiladi?
18. Atmosfera nechta qatlamdan iborat?
19. Quyosh tizimidagi Quyosh, sayyoralar va boshqa osmon jismlari qachon hosil bo'lgan?

20. Quyosh tarkibining taxminan necha foizi vodoroddan iborat?
21. Quyosh tarkibining taxminan necha foizi geliydan iborat?
22. Yerdan Oygacha bo'lgan o'rtacha masofa qancha?
23. Yer Quyosh atrofini qancha vaqtda bir marta aylanib chiqadi?
24. "Sunami" yaponcha qanday ma'noni anglatadi?
25. Hozir dunyo okeanida taxminan 160 ming nima turi yashaydi?
26. Dunyo okeanida taxminan necha ming o'simlik turi mavjud?
27. Iqtisodiy savdo aloqalarining necha foizi dengiz transporti orqali amalga oshiriladi?
28. Agar havo massalari okean yuzasida hosil bo'lsa, ular nima deb ataladi?
29. Sovuq okean oqimlari o'tgan hududlarda nimalar hosil bo'ladi?
30. Tinch okeani qaysi materik qirg'oqlarini yuvib turmaydi?
31. Ichki dengizlari eng ko'p bo'lgan okeanni aniqlang.
32. Hind okeanining qaysi mintaqasiga yog'in eng ko'p tushadi?
33. 1498-yilda Hind okeani orqali Hindistonga dengiz yo'lini ochgan sayyoh kim?
34. Neft va gaz zahiralari hamda qazib olinishi bo'yicha birinchi o'rinda turuvchi okean qaysi?
35. Afrikaning yer usti suvlari nimalardan iborat?
36. Uzunligi va havzasining maydoniga ko'ra Afrikaning uchinchi yirik daryosi qaysi?
37. Afrika maydonining necha foizini savannalar egallaydi?
38. Afrika materigining shimolida qaysi xalqlar yashaydi?
39. O'rta Atlantika suvosti tog' tizmasi okean tubida shimoldan janubga qancha masofaga cho'zilgan?
40. Avstraliya qaysi yarimsharda to'liq joylashgan?
41. Avstraliyadagi eng katta daryo qaysi?
42. Avstraliyada qaysi tabiat zonasi eng katta maydonni egallaydi?
43. Afrika materigining maydoni qancha?
44. Afrikaning g'arbiy chekka burni qaysi?
45. Avstraliya qanday materik sifatida mashhur?

46. Melaneziya soʻzi qanday maʼnoni anglatadi?
47. “Antarktida” soʻzi qanday maʼnoni bildiradi?
48. Afrika materigining maydoni qancha?
49. Afrikaning gʻarbiy chekka burni qaysi?
50. Avstraliya qanday materik sifatida mashhur?
51. Melaneziya soʻzi qanday maʼnoni anglatadi?
52. Yer yuzining “sovuqlik qutbi” (-89,2 °C) qayerda kuzatilgan?
53. Janubiy Amerikaga xos asosiy xususiyatni aniqlang.
54. Qachondan boshlab Yangi dunyo “Amerika” deb atala boshladi?
55. Atakama choʻlining namlik manbai asosan nima hisoblanadi?
56. Janubiy Amerikaning eng sersuv va uzun daryosi qaysi?
57. Amazonka daryosi nechta irmoqqa ega?
58. Amazonka daryosida suvning teskari oqish hodisasi qancha masofagacha kuzatiladi?
59. Dunyodagi eng baland sharshara qaysi?
60. Dunyodagi eng katta orol qaysi?
61. Eng baland suv qalqishi qayerda kuzatilgan?
62. Shimoliy Amerika materigining sharqiy qismida qaysi togʻ joylashgan?
63. “Missuri” soʻzi qanday maʼnoni anglatadi?
64. Dunyoga mashhur Katta Kanyon darasi qaysi daryo vodiysida joylashgan?
65. Yer sharidagi eng kichik okean qaysi?
66. Shimoliy Muz okeanini nechta materik oʻrab turadi?
67. Dunyodagi eng koʻp yogʻin tushadigan joy Cherrapunji qayerda joylashgan?
68. Yevrosiyo materigining eng katta qismini qaysi iqlim mintaqasi egallaydi?
69. Moʻtadil mintaqaning sharqiy qismida qaysi okean sohillarida musson shamollari hukmron?
70. Yer sharining kichraytirilgan modeli nima deb ataladi?
71. “Relyef” soʻzining maʼnosi nima?
72. Yerning suv qobigʻi nima deb ataladi?
73. Yerning tosh qobigʻi nima deb ataladi?

74. Yerning havo qobig‘i nima deb ataladi?
75. Yerning hayot qobig‘i nima deb ataladi?
76. Yerni ultrabinafsha nurlaridan nima saqlaydi?
77. Zilzila necha balli shkalada o‘lchanadi?
78. Atmosferadagi namlikning to‘liq yangilanishi uchun necha kun kerak bo‘ladi?
79. Yer yuzining qancha qismini Tinch okeani egallagan?
80. Hind okeanining maydoni qancha?
81. Gondvanadan qaysi materiklar ajralib chiqqan?
82. Lavraziyadan qaysi materiklar ajralib chiqqan?
83. Okean suvining asosiy xususiyatlari qaysilar?
84. Okean suvi nima sababli  $-2\text{ }^{\circ}\text{C}$  atrofida muzlaydi?
85. Atmosfera massasining 99,5 % qismi qayerga to‘g‘ri keladi?
86. Yer sharida nechta iqlim mintaqasi mavjud?
87. Landshaft nima?
88. Ekvatorning uzunligi qancha?
89. Yer o‘z o‘qi atrofida qancha vaqtda bir marta aylanib chiqadi?
90. Tinch okeanining shimoliy qismida qaysi turdagi baliqlarning 95 %i yashaydi?
91. 1498-yilda Hind okeani orqali Hindistonga dengiz yo‘lini ochgan sayyoh kim?
92. Neft va gaz zahiralari hamda qazib olinishi bo‘yicha birinchi o‘rinda turuvchi okean qaysi?
93. Ekvatorial o‘rmonlarda o‘simliklarning taxminan nechta turi mavjud?
94. Afrikaning eng baland nuqtasi — Kilimanjaro vulqoni qayerda joylashgan?
95. Afrika materigining shimolida qaysi xalqlar yashaydi?
96. Afrikada o‘simlik va hayvonot olamini asrash maqsadida nechta milliy bog‘ va qo‘riqxonalar tashkil etilgan?
97. Buyuk geografik kashfiyotlar qaysi okeandan boshlangan?
98. Atlantika okeani dengiz transporti bo‘yicha dunyoda nechanchi o‘rinda turadi?
99. Kriklar nima?
100. Yer yuzida nechta plita bor?

## **“GEOLOGIYA. TUPROQLAR GEOGRAFIYASI” FANIDAN SAVOLLAR**

1. Geologiya so‘zi yunoncha qanday ma’noni anglatadi?
2. Geologiya fanining tekshirish obyekti bu ...?
3. Magma o‘choqlari asosan qayerda joylashgan?
4. Yer po‘stining o‘rta qatlami nima deb nomlanadi?
5. Yer po‘stining okeanlardagi qalinligini belgilang.
6. Mantya so‘zining yunoncha ma’nosini aniqlang.
7. Yer po‘stining kimyoviy tarkibidagi eng ko‘p tarqalgan elementni (47%) aniqlang.
8. Minerallar kelib chiqish sharoitiga ko‘ra nechta yirik guruhga bo‘linadi?
9. Moos shkalasi minerallarning qaysi xususiyatlariga ko‘ra tuzilgan?
10. Yer po‘stida eng ko‘p uchraydigan minerallar noto‘g‘ri berilgan javobni aniqlang.
11. Magmaning yer yuzasiga chiqishidan hosil bo‘lgan tog‘ jinslarini belgilang.
12. Zilzila epitsentrini aniqlang.
13. Magmatizm deganda nimani tushunasiz?
14. Quruqlikda organizmlar qaysi davrdan boshlab chiqa boshlagan?
15. Kembriy davri qaysi era tarkibida?
16. Yer po‘stining tog‘lardagi qalinligini belgilang.
17. Fanerazoyga taalluqli eralarni ajrating.
18. Geoxronologiya jadvalida (geologik yilnomada) nima aks ettiriladi?
19. Geomorfologiya so‘zining lug‘aviy ma’nosini aniqlang.
20. Variantlarning qaysi birida relyefning eng muhim tushunchasi aks ettirilgan?
21. Katta-kichikligiga ko‘ra relyef shaklining eng katta turini belgilang.
22. Magmaning tarkibida 65–68 % kremniy oksidi bo‘lgan jinslar qanday ataladi?
23. Qaysi tog‘ jinsida paydo bo‘lgan relyef shakli tez yemirilib ketadi?
24. Relyef hosil bo‘lishidagi yetakchi endogen kuchlardan birini aniqlang.
25. Vulkan mahsuloti qattiq bo‘lsa qanday relyef shakli tarkib topadi?
26. Litologiya so‘zining ma’nosini belgilang.

27. Hozirgi zamon geomorfologiyasining maqsadi qanday bo'lishi kerak?
28. Geologiya fanida qatlamlarning paydo bo'lishini qiyosiy aniqlash usuli nima deyiladi?
29. «Geosinklinal» so'zini lug'aviy ma'nosini qanday izohlaysiz?
30. Minerallarning yaltiroqligi deganda nimani tushunasiz?
31. Yer qatlamlari haqidagi asarning muallifi kim?
32. Geologiya fanining asosiy vazifasi nima?
33. Geologiya atamasini kim va qachon fanga kiritgan?
34. Stratigrafiya so'zi lotincha qanday ma'noga ega?
35. Yerning geologik tarixida nechta era ajratilgan?
36. Baykal tog' burmalanishi qaysi davrlarda vujudga kelgan?
37. Allyuvial jinslar bu ...
38. Yer po'stida eng ko'p magma hosil bo'ladigan chegara qayer?
39. Yer po'stida eng ko'p uchraydigan minerallar sinfini belgilang.
40. Paleozoy erasida quruqlikdan suvning chekinishi qaysi davrda eng ko'p kuzatilgan?
41. Tog' jinsi ta'rifini aniqlang.
42. Magmaning tarkibida kremniy oksidi miqdori 45% dan kam bo'lsa ...
43. Metamorfik tog' jinslari deganda nimani tushunasiz?
44. To'rtlamchi davr necha qismga bo'linadi?
45. Yerning ichki tuzilishi qaysi usul bilan aniqlanadi?
46. Magma tarkibida kremniy oksidi ko'p bo'lsa magma qanday ko'rinishda bo'ladi?
47. Magma o'choqlarining paydo bo'lish sabablarini ko'rsating.
48. Geologik yotqiziqlarning xronologik bo'linishi vaqtlar bo'yicha qanday nomlanadi?
49. Metamorfizm jarayoni qanday ko'rinishga ega?
50. Intruziv magmatizm qanday relyef shakllarini hosil qiladi?
51. Magma tarkibida eng ko'p uchraydigan birikmalarni belgilang.
52. Minerallarning fizikaviy xususiyatlari qaysilar?

53. Yer yuzasidagi hozirgi relyef shakllari qaysi tog' burmalanishida hozirgi ko'rinishga ega bo'lgan?
54. Magmaning lug'aviy ma'nosi nima?
55. «Mineralogiya» asarini qaysi vatandoshimiz yozgan?
56. Yerning ichki tuzilishidagi asosiy geosferalarni aniqlang.
57. Tog' jinslarini temperatura va bosim ta'sirida tubdan qayta o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan jinslar qanday ataladi?
58. Akkumulyativ relyef shakllarini belgilang.
59. Geologiya fanida stratografik usul orqali nimani o'rganiladi?
60. Minerallarning kristal tuzilishini geologiyaning qaysi bo'limi o'rganadi?
61. Yer po'stining moddalari qanday holatda bo'ladi?
62. Mineral nima?
63. Minerallarning tiniq, yarim tiniq, xira, tiniqmas xillari ularning qaysi xususiyati uchun xos?
64. Minerallarning qattqlik shkalasiga nechta mineral kiritilgan?
65. Minerallar solishtirma og'irligiga ko'ra  $2,9 \text{ g/sm}^3$  dan ortiq bo'lganlari qanday nomlanadi?
66. Batigrafik egri chiziq bu ...
67. Gipsografik egri chiziq bu ...
68. Metamorfik jinslar ta'rifini to'ldiring.
69. Qattiq tog' jinslarining harorat ta'sirida parchalanishi tufayli qanday nurash hosil bo'ladi?
70. Kembriy davrining nomi qayerdan kelib chiqqan?
71. Kimyoviy reaksiyalar tufayli hosil bo'lgan nurash qanday nurash deyiladi?
72. Tuproq deganda nima tushuniladi?
73. Tuproqning boshqa tog' jinslaridan asosiy farqi nima?
74. Tuproqlar geografiasining tadqiqot obyekti nima?
75. Tuproqlar geografiasi qaysi fan bilan chambarchas bog'liq?
76. Tuproqni ba'zi olimlar nima uchun landshaftning "ko'zgusi" deb ataydi?
77. Tuproqshunoslik fanining asoschisi kim hisoblanadi?

- 78.V.V. Dokuchayevning mashhur asari qaysi?
- 79.Yer po‘stining asosiy kimyoviy elementi qaysi?
- 80.Tabiatda ma’lum kimyoviy tarkibga ega bo‘lgan tabiiy jismlar nima deb ataladi?
- 81.Kelib chiqishiga ko‘ra tog‘ jinslari nechta guruhga bo‘linadi?
- 82.Magmatik tog‘ jinslari qanday hosil bo‘ladi?
- 83.Tog‘ jinslarining quyosh, shamol, suv va tirik organizmlar ta’sirida parchalanishi nima deyiladi?
- 84.Nurash jarayonlari nechta turga bo‘linadi?
- 85.Fizik nurashda tog‘ jinslarining qaysi xususiyati o‘zgarmaydi?
- 86.Nurash po‘sti yuzasida hosil bo‘lib tuproq hosil qiluvchi jinslar qanday ataladi?
- 87.Tuproq hosil bo‘lish jarayoniga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri qaysi?
- 88.Tuproq hosil bo‘lishida o‘simliklarning asosiy roli nimada?
- 89.Tuproq hosil bo‘lishida relyef qanday ahamiyatga ega?
- 90.Tuproq hosil bo‘lishida ona jinslarning ahamiyati nimada?
- 91.Tuproq profilida eng ustki qatlam qanday ataladi?
- 92.Tuproq profilida gumus nima?
- 93.Tuproq profilining eng pastki qatlami qanday ataladi?
- 94.Tuproqning asosiy mexanik fraksiyalariga qaysilar kiradi?
- 95.Qumli tuproqlar qanday xususiyatga ega?
- 96.Gil tuproqlarning asosiy xususiyati nima?
- 97.Tuproqning mexanik tarkibi nimaga ta’sir qiladi?
- 98.Tuproqdagi eng mayda zarrachalar qaysi?
- 99.Mexanik tarkibni aniqlash nimaga yordam beradi?
100. Tuproqning zichligi nimani anglatadi?

## **“TABIIY GEOGRAFIYA” FANIDAN SAVOLLAR**

1. Avstraliya (lotincha “australis” — janubiy) to‘liq qaysi yarimsharda joylashgan?

2. Yevropaliklardan birinchi bo‘lib Avstraliya quruqligiga qadam qo‘ygan kishi kim?
3. Uilyam Yanszon nechanchi yilda Keyp-York yarimoroliga yetib borib, materikka “Yangi Gollandiya” nomini bergan?
4. Avstraliya cho‘l zonalari egallagan hududlar maydoni bo‘yicha dunyoda nechanchi o‘rinni egallaydi?
5. Avstraliyada tarqalgan evkalipt daraxtining bo‘yi qanchaga yetishi mumkin?
6. Markaziy Avstraliya pasttekisligining mutlaq balandligi qancha?
7. Kriklar nima?
8. Avstraliyadagi eng katta daryo qaysi?
9. Avstraliyada qaysi tabiat zonasi eng katta maydonni egallaydi?
10. Polineziya so‘zi qanday ma‘noni anglatadi?
11. Afrika materigining maydoni qancha?
12. Afrikaning g‘arbiy chekka burni qaysi?
13. Melaneziya so‘zi qanday ma‘noni anglatadi?
14. Antarktidada pingvinlarning nechta turi tarqalgan?
15. Janubiy Amerikaga xos asosiy xususiyatni aniqlang.
16. Janubiy Amerikaning eng sersuv va uzun daryosi qaysi?
17. Amazonka daryosi nechta irmoqqa ega?
18. Dunyoga mashhur Katta Kanyon darasi qaysi daryo vodiysida joylashgan?
19. Berk havzada joylashgan Shari daryosi qaysi ko‘lga quyiladi?
20. Afrika materigining eng shimoliy nuqtasi qaysi?
21. Afrika materigining eng janubiy nuqtasi qaysi?
22. Axaggar va Tibesti tog‘ massivlari qayerda joylashgan?
23. Atakama cho‘lida dunyoda yagona qanday foydali qazilma koni mavjud?
24. Janubiy Amerikaning ayrim iqlim xususiyatlari qaysi materik iqlimiga o‘xshash?
25. Yerning nechta qobig‘i mavjud?
26. Biosfera qanday vujudga kelgan?
27. Yer yuzining “sovuqlik qutbi” (-89,2 °C) qayerda kuzatilgan?

28. Qaysi ko‘llar oqmas ko‘llar guruhiga kiradi?
29. Tinch okeani qaysi materik qirg‘oqlarini yuvib turmaydi?
30. O‘rta Osiyoning umumiy maydoni taxminan qancha?
31. O‘rta Osiyo qaysi materikda joylashgan?
32. O‘rta Osiyoning geografik o‘rganilishida katta hissa qo‘shgan rus olimi kim?
33. O‘rta Osiyo hududi asosan qaysi geologik platformaning bir qismi hisoblanadi?
34. O‘rta Osiyo iqlimi qanday tipga kiradi?
35. O‘rta Osiyodagi eng yirik daryolardan biri qaysi?
36. Sirdaryo daryosi qayerdan boshlanadi?
37. O‘rta Osiyo cho‘llarida asosan qanday tuproqlar tarqalgan?
38. Cho‘l hayvonlaridan biri qaysi?
39. Qozog‘iston past tog‘lari qanday nom bilan ham ataladi?
40. Mug‘ojar tog‘lari qaysi tog‘ tizimining davomi hisoblanadi?
41. Mang‘ishloq yarim oroli qayerda joylashgan?
42. Ustyurt platosi qaysi ikki dengiz orasida joylashgan?
43. Balxash ko‘li qaysi davlat hududida joylashgan?
44. Orol dengizining qurishi asosan nimaga bog‘liq?
45. Quyi Amudaryo hududi qaysi tabiiy o‘lkada joylashgan?
46. Mo‘yinqum cho‘li qayerda joylashgan?
47. Qizilqum cho‘li qaysi ikki daryo orasida joylashgan?
48. Qoraqum cho‘li qaysi davlatda joylashgan?
49. Mirzacho‘l qayerda joylashgan?
50. Tyanshan tog‘lari qaysi tog‘ tizimiga kiradi?
51. Issiqko‘l ko‘li qaysi davlatda joylashgan?
52. Farg‘ona botiqi qaysi davlatlar orasida joylashgan?
53. Pomir tog‘lari asosan qaysi davlat hududida joylashgan?
54. Turkman-Xuroson tog‘lari qayerda joylashgan?
55. O‘zbekistonning umumiy maydoni qancha?
56. O‘zbekiston relyefida qaysi shakllar ustun?

57. O'zbekiston hududining katta qismi qaysi platformada joylashgan?
58. Sirdaryo suvi qayerga quyiladi?
59. O'zbekiston cho'l hududlarida qanday tuproqlar keng tarqalgan?
60. Cho'l hududlarida keng tarqalgan o'simliklardan biri qaysi?
61. Yevrosiyo materigini sharqdan qaysi okean o'rab oladi?
62. Yevrosiyo materigini janubdan qaysi okean o'rab oladi?
63. Yevrosiyo materigining eng shimoliy chekka nuqtasi qayerda joylashgan?
64. Yevrosiyo materigining eng janubiy chekka nuqtasi qayerda joylashgan?
65. Yevrosiyo materigining eng g'arbiy chekka nuqtasi qaysi?
66. Yevrosiyo materigining eng sharqiy chekka nuqtasi qaysi?
67. Yevrosiyo materigining umumiy maydoni qancha?
68. Yevrosiyo qaysi ikki qit'adan tashkil topgan?
69. Yevropa va Osiyo quruqlikdagi chegarasi qaysi ob'ekt orqali o'tadi?
70. Tinch okeani qaysi materiklar oralig'ida joylashgan?
71. Tinch okeani shimolda qaysi okean bilan tutashadi?
72. Tinch okeani g'arbiy qismida qaysi materiklar joylashgan?
73. Tinch okeani sharqiy qismida qaysi materiklar joylashgan?
74. Tinch okeani tubining eng chuqur joyi qaysi?
75. Mariana cho'kmasi qaysi dengiz yaqinida joylashgan?
76. Tinch okeanida orollar soni jihatidan qaysi hudud yetakchi hisoblanadi?
77. Tinch okeanida eng ko'p uchraydigan orollar kelib chiqishiga ko'ra qanday?
78. Tinch okeani havzasida "Olovli halqa" nimani anglatadi?
79. Atlantika okeani qaysi materiklar oralig'ida joylashgan?
80. Atlantika okeani shimolda qaysi okean bilan tutashadi?
81. Atlantika okeani janubda qaysi materik bilan tutashadi?
82. Atlantika okeanining eng chuqur joyi qaysi?
83. Atlantika okeani tubi relyefining asosiy xususiyati qaysi?
84. Atlantika okeanini shimoldan janubga kesib o'tuvchi tizma qaysi?
85. Atlantika okeanida eng mashhur iliq oqim qaysi?
86. Golfstrim oqimi asosan qaysi hudud iqlimiga ta'sir ko'rsatadi?

- 87.Hind okeani qaysi materiklar oralig‘ida joylashgan?
- 88.Hind okeani shimolda qaysi materik bilan chegaralanadi?
- 89.Hind okeani janubda qaysi materik tomon kengayib boradi?
- 90.Hind okeanida eng yirik qo‘ltiklardan biri qaysi?
- 91.Hind okeanining sho‘rligi qaysi hududlarda yuqoriroq bo‘ladi?
- 92.Shimoliy Muz okeani qaysi materiklar bilan o‘ralgan?
- 93.Shimoliy Muz okeanining asosiy xususiyati qaysi?
- 94.Shimoliy Muz okeanining eng yirik dengizlaridan biri qaysi?
- 95.Shimoliy Muz okeaniga quyiladigan yirik daryolar qaysilar?
- 96.Shimoliy Amerikaning eng yirik oroli qaysi?
- 97.Shimoliy Amerikaning shimoliy chekka nuqtasi qaysi?
- 98.Shimoliy Amerikaning janubiy chekka nuqtasi qaysi?
- 99.Shimoliy Amerikaning g‘arbiy chekka nuqtasi qaysi?
100. Shimoliy Amerikaning sharqiy chekka nuqtasi qaysi?

### **“IQTISODIY VA IJTIMOYIY GEOGRAFIYA” FANIDAN SAVOLLAR**

1. Hududiy ishlab chiqarish majmualarining ilmiy nazariy asoslarini kim yaratgan?
2. Dunyodagi eng katta sellyuloza-qog‘oz kombinati qaysi davlatda joylashgan?
3. Atrof-muhitning ifloslanishida qanday omillar asosiy rol o‘ynaydi?
4. Metallurgiya sanoatida qaysi metall “qanotli metall” deb nomlanadi?
5. Jahon turizmining rivojlanishi bo‘yicha qaysi qit’a yetakchi hisoblanadi?
6. “Tinchlik yo‘lida hamkorlik” dasturi qaysi tashkilot tomonidan qabul qilingan?
7. Millioner shaharlari ko‘p bo‘lgan davlat qaysi?
8. Jahondagi aholisi eng ko‘p bo‘lgan shahar qaysi?
9. Aholi zichligi bo‘yicha eng yuqori bo‘lgan hudud qaysi?
- 10.Turizmdan yuqori daromad oluvchi davlatni belgilang.
- 11.Sanoatning yangi tarmoqlariga nimalar kiradi?
- 12.“Yangi sanoatlashgan” mamlakatlarni aniqlang.
- 13.Neftni eksport qiluvchi (OPEK) davlatlarni ko‘rsating.

14. Eng ko'p velosipeddan foydalanadigan davlat qaysi?
15. Dunyoning eng muhim suv yo'llaridan biri bo'lgan Suvaysh kanalini qaysi davlat nazorat qiladi?
16. Mehnat resurslari yuqori bo'lgan davlatni aniqlang.
17. "Ko'llar mamlakati" deb ham nomlanadigan davlat qaysi?
18. Dunyo miqyosida neftni eng ko'p import qiladigan davlat qaysi?
19. Qaysi qit'ada hozirgi kunda ham termachilik va ovchilik saqlanib qolgan?
20. Dunyo miqyosida eng katta orolga egalik qiluvchi davlat qaysi?
21. Dunyo neft ishlab chiqaruvchi davlatlar qanday tashkilotga birlashgan?
22. Kanadaning "bug'doy poytaxti" deb ataladigan shahri qaysi?
23. Kimyo sanoati bo'yicha birinchi o'rinda turadigan davlat qaysi?
24. Turizm eng ko'p rivojlangan qit'a qaysi?
25. Eng ko'p sanoatlashtirilgan davlatlar joylashgan qit'a qaysi?
26. Qanday davlatda yagona qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat davlat organlarining yagona tizimi va konstitutsiyasi mavjud bo'ladi?
27. Hozirgi dunyo xaritasida nechta davlat bor?
28. Xitoy hududida qaysi cho'l joylashgan?
29. Fan-texnika inqilobi qachon boshlangan?
30. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish omillari, sanoat aglomeratsiyasi va aglomeratsion samaradorlik tushunchalari qaysi olim nomi bilan bog'liq?
31. Qo'shimcha mehnat resurslariga necha yoshdagilar kiradi?
32. Migratsiya nima?
33. Shahar aholisi soni va salmog'ining o'sib borish jarayoni qanday ataladi?
34. Quyidagilardan qaysi biri ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish omili hisoblanadi?
35. Rekreatsion resurslar deganda nimani tushunasiz?
36. Kooperatsiya nima?
37. Kombinatsiya nima?
38. Jahonda ishlab chiqarilayotgan gazeta qog'ozining 40 %i va eksportining 60 %i qaysi davlatga to'g'ri keladi?

39. Olmos qazib olishda qaysi regionning hissasi katta?
40. OPEK davlatlariga kirmaydigan davlat qaysi?
41. Neftni tashishda asosiy transport turi qaysi?
42. Hududi bevosita dengiz bilan tutash bo'lmagan mamlakatlarni aniqlang.
43. Yirik shoxli qoramollar soni eng ko'p bo'lgan davlat qaysi?
44. Xitoy, Hindiston, Indoneziya va Tailand qishloq xo'jaligining qaysi turi bo'yicha yetakchi hisoblanadi?
45. Xitoyda keng tarqalgan ikki din qaysilar?
46. "Iqtisodiy" ("ekonomicheskiy") so'zi birinchi bo'lib qaysi olim tomonidan tilga olingan?
47. Yoqilg'ilar ichida jahonda eng ko'p foydalaniladigan turi qaysi?
48. Jahon donli ekinlarining necha foizini bug'doy tashkil etadi?
49. Quyidagi mamlakatlarning qaysi birida temir yo'llar uzunligi eng kam?
50. Afrikada eng ko'p turistlarni jalb qiladigan davlat qaysi?
51. AQSHning "avtomobil poytaxti" deb ataladigan shahri qaysi?
52. Ibtidoiy jamoa davrida inson asosan qaysi faoliyat bilan shug'ullangan?
53. Qadimgi tsivilizatsiyalar shakllangan daryo vodiylari qaysi javobda to'g'ri berilgan?
54. Tabiatga inson ta'sirining keskin kuchayishi qaysi bosqichda kuzatilgan?
55. Qaysi resurslar tiklanmaydigan tabiiy resurslarga kiradi?
56. Quyidagilardan qaysi biri tugamaydigan tabiiy resurs hisoblanadi?
57. Dunyo okeani Yer yuzasining necha foizini egallaydi?
58. Qaysi mamlakat eng yuqori o'rtacha yosh ko'rsatkichiga ega?
59. 2020-yilda aholining eng katta ulushi qaysi qit'ada joylashgan?
60. 2050-yilga borib aholi ulushi eng tez o'sadigan qit'a qaysi?
61. Aholi soni bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni qaysi davlat egallaydi?
62. Qadimgi savdoda asosiy tashish vositalari qaysilar bo'lgan?
63. Amerika qit'asining ochilishi nimani rivojlantirdi?
64. XVII–XX asr o'rtalari xalqaro iqtisodiy munosabatlarda qanday davr hisoblanadi?

65. Quyidagilardan qaysi biri zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlar tendensiyasi emas?
66. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy ko'rsatkichi qaysi?
67. Xalqaro mehnat taqsimoti natijasida nima yuzaga keladi?
68. Jahon xo'jaligi nima asosida shakllanadi?
69. Mehnat taqsimoti qanday munosabatlarni yuzaga keltiradi?
70. Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi nimaga asos bo'ladi?
71. Xalqaro mehnat taqsimoti deganda nima tushuniladi?
72. Qishloq xo'jaligi aholi uchun asosan nimani ta'minlaydi?
73. Qishloq xo'jaligi qaysi sanoat uchun xom ashyo yetkazib beradi?
74. Jahonda to'yib ovqat yemaydigan aholi asosan qayerlarda yashaydi?
75. Sanoatlashgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligida band aholi ulushi qanday o'zgarib bormoqda?
76. Qishloq xo'jaligining asosiy ikki tarmog'i qaysilar?
77. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qaysi tabiiy omillar zarur?
78. Qutb mamlakatlari uchun qishloq xo'jaligi nima sababli noqulay?
79. Qishloq xo'jaligi hosildorligiga qaysi omil katta ta'sir ko'rsatadi?
80. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ochlikning asosiy sabablaridan biri nima?
81. An'anaviy transport vositalariga nimalar kiradi?
82. Yer atrofini birinchi bo'lib kim aylanib chiqqan?
83. XIX–XX asrlar nimasi bilan ajralib turadi?
84. Fan-texnika inqilobi (FTI) nimaga kuchli ta'sir ko'rsatdi?
85. Transport takomillashuvi qanday natija berdi?
86. Zamonaviy transport vositalariga qo'yiladigan asosiy talablar qaysilar?
87. Qit'alararo masofani deyarli yo'qotgan transport vositasi qaysi?
88. Quyidagilardan qaysi biri ekologik global muammoga kiradi?
89. Qutb muzliklarining erishi qanday oqibatga olib keladi?
90. Atmosferaning asosiy ifloslovchi gazlaridan biri qaysi?
91. Hozirda necha tadan ortiq rivojlanayotgan mamlakatlar oziq-ovqatni import qiladi?

92. Dunyo okeani Yer yuzasining necha foizini egallaydi?
93. Quyidagilardan qaysi biri okeanning asosiy boyligi hisoblanadi?
94. Kelajakda eng istiqbolli energiya manbai sifatida qaysi ko'rsatiladi?
95. Energetika muammosini hal etishning asosiy yo'nalishlari qaysilar?
96. Yevropa qit'asining maydoni qancha?
97. Janubiy Yevropa davlatlarida yagona mutlaq teokratik monarxiya qaysi davlat hisoblanadi?
98. Yevropa subregionlaridan qaysisida monarxiya davlatlari mavjud emas?
99. Shimoliy Yevropada aholi zichligi qanday ko'rsatkich bilan tavsiflanadi?
100. 2022-yil noyabr holatiga ko'ra dunyo aholisi soni qanchaga yetgan?

### **“EKOLOGIYA VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH” FANIDAN SAVOLLAR**

1. Tabiat nima?
2. Ekologiya qanday fan?
3. Biotik omillar majmui qaysilar?
4. Ekologiya fanining ilmiy-tadqiqot uslublari qaysilar?
5. Qaysi olim biogeotsenozlar haqidagi tasavvurni asoslab berdi?
6. Ozuqa zanjiri deganda nimani tushunasiz?
7. Ekologik piramida kim tomonidan tuzilgan?
8. Minimum qonuni nima?
9. Cheklovchi omil deganda nimani tushunasiz?
10. Insonning biosotsial mohiyati nimada?
11. Biogen va antropogen omil ta'sirida modda va energiya almashinuvining farqi bormi?
12. Urbanizatsiya nima?
13. Atmosferada oltingugurt gazining ruxsat etilgan miqdori qancha?
14. Buyuk alloma Muhammad Muso al-Xorazmiy qachon yashagan?
15. “Qizil kitob” nima?
16. Ekologik inqirozli hudud nima?

17. “O‘zbekistonda suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida” qonun qachon qabul qilingan?
18. “O‘simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish” to‘g‘risidagi qonun qachon qabul qilingan?
19. Atmosferadagi is gazlarining ruxsat etilgan miqdori qancha?
20. Geoekologiya nima?
21. Atmosferadagi qaysi moddalarning mavjudligi “issiqxona effekti”ni belgilaydi?
22. Ekonisha nima?
23. Ozon qatlamining teshilishi birinchi marta qachon va qayerda kuzatilgan?
24. “Rim klubi” qachon tashkil etilgan?
25. Shamol ta’sirida tuproqlarning yemirilishi qanday nomlanadi?
26. Sinekologiya nimani o‘rganadi?
27. O‘zbekistonda nechta milliy bog‘ bor?
28. O‘zbekistondagi alohida muhofaza qilinadigan hududlardan to‘g‘ri javobni belgilang.
29. “Tabiatni muhofaza qilish” deganda nimani tushunasiz?
30. Geliofit o‘simliklar qanday o‘simliklar?
31. Tabiatga insonlarning turli ishlab chiqarish faoliyatlari natijasida ta’siri qanday omil deyiladi?
32. “Ekologiya” atamasining dastlabki ta’rifi qaysi olim tomonidan fanga kiritilgan?
33. Odatda qo‘riqxonalar maydoni necha ming gektar bo‘ladi?
34. “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilingan?
35. “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilingan?
36. “Qishloq xo‘jaligi o‘simliklarini zararli organizmlardan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilingan?
37. “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilingan?

38. "Sertifikatlash to'g'risida"gi qonun qachon qabul qilingan?
39. "O'rmon to'g'risida"gi qonun qachon qabul qilingan?
40. "O'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonun qachon qabul qilingan?
41. "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonun qachon qabul qilingan?
42. "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi qonun qachon qabul qilingan?
43. "Qizil kitob"ga kiritilgan hayvonlarni ko'rsating.
44. "Tabiatni muhofaza qilish" termini dastlab nechanchi yilda o'tkazilgan s'ezdda qabul qilingan?
45. "Yashil kitob"ga nima muhofazasi kiritilgan?
- 46.1 gektar maydondan 130 sentner kartoshka olinsa, qancha azot chiqib ketadi?
- 47.1 ta transport dvigateli 1 yilda necha kishi nafas oladigan kislorodni sarflaydi?
- 48.1 tonna makkajo'xori olish uchun qancha suv sarflanadi?
- 49.18–20 sm tabiiy tuproq hosil bo'lishi uchun necha yil kerak bo'ladi?
- 50.1960-yillarda Orol dengizi suvining minerallashuv darajasi 1 litr suvda qancha bo'lgan?
- 51.1992 yilda o'tkazilgan atrof-muhit muhofazasiga oid konferensiya qayerda o'tkazilgan?
- 52.2030-yilga kelib O'zbekiston hududida yog'ingarchilik miqdori necha foizga oshishi prognoz qilinmoqda?
- 53.25–30 yil ichida dunyoda toshko'mirga bo'lgan talab necha martaga oshdi?
54. Antropogen omil nima?
55. Atmosfera qanday yo'llar bilan ifloslanadi?
56. Atmosfera qatlamlari ketma-ketligi qaysi javobda to'g'ri berilgan?
57. Atmosferada kislorodning asosiy qismi qanday hosil bo'ladi?
58. Atmosferani ifloslovchi moddalar nechaga bo'linadi?
59. Biosferadagi o'zgarishlar va nazoratni qaysi tashkilot boshqarib boradi?
60. Cho'llanishning kelib chiqishining asosiy sababi nima?
61. Landshaft nima?

62. Qishloq xo'jaligida pestitsidlar qo'llanilganda qanday geoeologik o'zgarishlar yuzaga keladi?
63. Agar atmosfera qobiq'i bo'lmasa, Yer yuzida havo harorati tun-kun qanday bo'ladi?
64. Agar inson 70 yil umr ko'rsa, umri davomida qancha havo iste'mol qiladi?
65. Atmosfera qanday qobiq?
66. Odatda qo'riqxonalar maydoni necha ming gektar bo'ladi?
67. Atmosfera tarkibidagi qaysi gaz ultrabinafsha nurlarini ushlab qoladi?
68. Atmosfera havosi tarkibida 78 % bo'lgan gaz qaysi?
69. Atmosferada sodir bo'layotgan jarayonlar qaysi energiya hisobiga amalga oshadi?
70. Atmosferadagi barcha kislorod o'simliklar orqali bir marta o'tishi uchun necha yil kerak bo'ladi?
71. Biogeotsenozlarning asosiy komponentlariga qaysilar kiradi?
72. Atmosferaning ifloslanishidan qanday kasalliklar kelib chiqadi?
73. Atmosferaning eng xavfli ifloslanish turi qaysi?
74. Bir gektar o'rmon quyoshli kunlarda qancha CO<sub>2</sub> ni yutadi?
75. Bir gektar o'rmon o'simliklari har oyda qancha changni ushlab qoladi?
76. Biosferada hayvonot dunyosi 2 mln dan ortiq turni o'z ichiga oladi. Shundan qancha qismi hasharotlarga to'g'ri keladi?
77. Biosfera qaysi qatlamlarni o'z ichiga oladi?
78. Bir tonna neft suv yuzasining qancha qismida moy qatlamini hosil qiladi?
79. V.N. Sukachyov 1942 yilda qaysi atamaga asos solgan?
80. Vazirlar Mahkamasining "Yer boyliklarini qo'riqlash va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qarori qachon qabul qilingan?
81. Vodorod asosan nimadan olinadi?
82. Geotermal energiya qanday energiya hisoblanadi?
83. Deflyatsiya nima?
84. Dunyo aholisining soni o'tgan asr boshida qancha bo'lgan?

85. Dunyo bo'yicha namlik bilan yetarli ta'minlangan hududlar quruqlikning necha foizini tashkil etadi?
86. Dunyo bo'yicha sug'orib dehqonchilik qilinadigan har bir gektar maydonga qancha suv sarflanadi?
87. Dunyo issiqxonasi deganda nimani tushunasiz?
88. "Ekologiya" atamasining dastlabki ta'rifi qaysi olim tomonidan fanga kiritilgan?
89. Dunyoda yerlarning buzilishi necha xil yo'l bilan sodir bo'ladi?
90. Yer sharini suvdan iborat bo'lgan qobig'i qanday ataladi?
91. Yer sharining quruqlik maydoni qancha?
92. Yer yuzasidagi har bir kishiga kuniga necha litr suv kerak?
93. Yerning qaysi qatlamida hayot mavjud?
94. Jamiyat bilan tabiat o'rtasida modda va energiya almashinuvi shunday darajaga yetdiki, antropogen omil qaysi darajaga ko'tarildi?
95. Jamiyat bu nima?
96. Jahon iqlimi o'zgarishi bo'yicha Nyu-York konvensiyasi qachon qabul qilingan?
97. Zaharli ximikatlar nechta guruhga bo'linadi?
98. Inson bu nima?
99. Insonning tabiatga ta'siri qachondan boshlangan?
100. Atmosferada oltingugurt gazining ruxsat etilgan miqdori qancha?

#### **IV. ATTESTATSIYA SINOVI NATIJALARINI BAHOLASH MEZONI**

11. Attestatsiya sinovi bo'yicha talabalar bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida amalga oshiriladi.

12. Axborot texnologiyalarini qo'llash orqali o'tkaziladigan test sinovlarida har bir talabaga 100 (yuz) ta savoldan iborat test varianti taqdim etiladi.

Har bir test variantida mazkur Dasturga kiritilgan fanlarga doir savol (topshiriq)lar nisbati o'zaro mutanosib taqsimotda bo'lishi lozim.

Talaba bilimi Attestatsiya sinovida to'g'ri topilgan test savollari soniga nisbatan quyidagi taqsimotda baholanadi:

86 ta va undan ko'p savollarga to'g'ri javob berilganda – 5 (“a’lo”);  
71 tadan 85 tagacha savollarga to'g'ri javob berilganda – 4 (“yaxshi”);  
55 tadan 70 tagacha savollarga to'g'ri javob berilganda – 3 (“qoniqarli”);  
54 ta va undan kam savollarga to'g'ri javob berilganda – 2 (“qoniqarsiz”).

Test shaklidagi Attestatsiya sinoviga 3 (uch) soat vaqt beriladi.

Test shaklidagi Attestatsiya sinovi talabalar sig'imiga qo'yiladigan texnik talablarga mos, kompyuterlar bilan jihozlangan o'quv xonalari (hudud)da o'tkaziladi.

13. Talaba baholash natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda Attestatsiya sinovilari natijalari Komissiya tomonidan e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 (yigirma to'rt) soat davomida apellyatsiya berishi mumkin.

Talabaning apellyatsiya murojaati universitet rektori buyrug'i asosida tuziladigan Apellyatsiya komissiyasi tomonidan 2 (ikki) kun ichida ko'rib chiqiladi va uning natijasi bo'yicha qaror qabul qilinadi.

## **V. ATTESTATSIYA SINIVI BO'YICHA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI VA QO'SHIMCHA USLUBIY KO'RSATMALAR**

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-son Qonuni. Toshkent sh., 2020 yil 23 sentyabr.
- 2.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-sonli «Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.
5. Baratov P., Sultanova N. Umumiy yer bilimi. T.: “Info Capital Group”, 2019.
6. Vahobov H., Abdunazarov O., Zaynutdinov A., Yusupov R. Umumiy Yer bilimi. – T.: Bilim, 2005
7. Strahler, Alan H. Introducing physical geography. Wiley. USA, Boston Universit y. 2013. ISBN: 978-0470-13486-3, 978-0470-41811-6
8. V. Ettwein and M. Maslin. Physical geography: fundamentals of the physical environment. University of London. 2012 UK. ISBN: GY1147, 2790147, 2011.
9. Nizomov A va boshq. “Geologiya”. O'quv qo'llanma T.: “Info Capital Group”, 2019.
10. Toshmuhamedov. B.T. Umumiy geologiya. Darslik. T.: “Noshir” 2011.
11. Qurbonov A. S. “Geologiya” o'quv qo'llanma T.: «O'qituvchi», 1992.
12. Xodjimatov A.N., Xolmurodov Sh.A. Tuproqlar geografiyasi. – T.: Fan va texnologiyalar. 2018.
13. Toshxo'jaev R. Tuproqshunoslik (laboratoriya mashg'ulotlari). – T.: TDPU, 2008.

14. Qurbonov A. S. “ Geologiya” o‘quv qo‘llanma T.:«O‘qituvchi», 1992.
15. Vaxobov X., Abdulqosimov A., Alimkulov N.R. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: “Nodirabegim”, 2021.
16. Baratov P., Sultanova N.B. Umumiy Yer bilimi. O‘quv qo‘llanma. T.: “Info Capital Group”, 2019.
17. Baratov P., Mamatqulov M., Rafiqov A.A. O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi. O‘quv qo‘llanma T.: “O‘qituvchi”, 2002.
18. Baratov P. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi. (Oliy O‘quv yurtlari geografiya talabalari uchun o‘quv qo‘llanma). T.: “O‘qituvchi”, 1996.
19. Pritula.T.Yu., Yeryomina V.A., Spryalin A.N. Fizicheskaya geografiya materikov i okeanov. M.: Vldos IMPE im. A.S.Griboedova, 2003.
20. Baratov P. Tabiiy geografiya (O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasidan amaliy ishlar). T.: TDPU, 2014.
21. Baratov P. O‘zbekiston tabiiy geografiyasidan amaliy mashg‘ulotlar. Toshkent, “Cho‘lpon”, 2005.
22. Alisov B, Xoreev A. Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya mira. M.: Prosveщenie, 2001.
23. Baxritdinov B.A. va boshqalar. Jahon ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. T.: 2008.
24. Boltaev M.J. Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. “Universitet” nashriyoti. Toshkent-2003.
25. Pardaev G‘.R. Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. “Universitet” nashriyoti. Angren-2003.
26. Qayumov.A, Pardaev G‘.R., Islomov I. Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Toshkent-2015.
27. Soliyev A. O‘zbekiston Geografiyasi (O‘zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi). Toshkent, “Universitet”, 2014.
28. N. Safarova, N.Komilova, I. Islomov, N. Karakulov., Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T.: Mahalla va oila, 2022
29. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish. T.: O‘zbekiston ,1998.
30. Abirqulov Q.N., Xojimatov A.N. Atrof-muhitni muhofaza qilish. T.: “O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi”, 2004.
31. Rafiqov A.A., Abirqulov Q.N., Xojimatov A.N. Ekologiya. T.: “O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi”, 2004.
32. Tursunov X. «Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish» O‘zbekiston, T. 1997.
33. Tursunov X. «Ekologiya». “Olmepress” T. 2006.
34. Xodjimatov A.N., Alimkulov N.R., Xolmurodov Sh.A., Djuraev M.E. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyoti-Matbaa uyi”., 2020. 228 b.

## **VI. YAKUNLOVCHI QOIDALAR**

15. Dasturda belgilangan qoidalar O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, shuningdek ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilingan qoida va me'yorlarga zid kelsa, yuqori turuvchi organlarda belgilangan qoida va me'yorlar amal qiladi.

16. Dastur institut Kengashi tomonidan tasdiqlangandan so'ng, yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan uch oy oldin talabalar e'tiboriga yetkaziladi hamda universitetning rasmiy saytiga joylashtiriladi.

17. Fakultet dekanlari tomonidan bitiruvchi kurs talabalariga mazkur Dastur asosida tayyorgarlik ko'rish va maslahatlar berish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.